# SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ORQALI BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH DINAMIKASI

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika*
*universiteti mustaqil tadqiqotchisi*
*Mirzo Ulug‘bek vorislari mayyorlov o‘quv kurslari*
*markazi bo‘lim boshlig‘i*
*Olimova Feruza Karimjonovna*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish dinamikasi nazariy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish, pedagogik vaziyatlarga nostandart yondashish, ta’lim oluvchining subyektiv tajribasini hisobga olish, mustaqil tanlov va ijodiy tashabbusni qo‘llab-quvvatlash kabi tamoyillari asosida ijodiy faoliyat rivojlanishining bosqichlari, mezonlari va pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, ijodiy faoliyat, kreativlik, pedagogik mahorat, individual yondashuv, ijodiy tafakkur, refleksiya, innovatsion ta’lim, rivojlanish dinamikasi.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье проводится теоретико-педагогический анализ динамики развития творческой деятельности будущих учителей начальных классов на основе личностно-ориентированного обучения. Рассматриваются вопросы развития у будущих учителей творческого мышления и навыков самостоятельного принятия решений, а также освещаются этапы, критерии и педагогические условия развития творческой деятельности, основанные на таких принципах личностно-ориентированного обучения, как нестандартный подход к педагогическим ситуациям, учёт субъективного опыта обучающихся,

предоставление возможностей для самостоятельного выбора и поддержка творческой инициативы.

**Ключевые слова:** личностно-ориентированное обучение, будущий учитель начальных классов, творческая деятельность, креативность, педагогическое мастерство, индивидуальный подход, творческое мышление, рефлексия, инновационное обучение, динамика развития.

## ABSTRACT

This article provides a theoretical and pedagogical analysis of the dynamics of developing the creative activity of future primary school teachers through person-centered education. It examines the development of creative thinking and independent decision-making skills among prospective teachers, as well as the stages, criteria, and pedagogical conditions for developing creative activity based on such principles of person-centered education as non-standard approaches to pedagogical situations, consideration of learners’ subjective experiences, opportunities for independent choice, and support for creative initiative.

**Keywords:** person-centered education, future primary school teacher, creative activity, creativity, pedagogical excellence, individual approach, creative thinking, reflection, innovative education, development dynamics.

Bugungi kunda jahon ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali rivojlantirish, pedagogik faoliyatga ijodiy tayyorgarligini tarkib toptirishga yo‘naltirish, ularda shaxsiy va kasbiy sifatlar (qat’iylik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, faollik)ni rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamalakatimizning ta’lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy talablarni qo‘ymoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning intellektual, ma’naviy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi,

pedagogik mahorati hamda ijodiy yondashuviga bog‘liq. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirish va izchil rivojlantirish pedagogika oliy ta’lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik paradigmada ta’lim jarayoning asosiy maqsadi faqat bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish emas, balki mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega, kasbiy faoliyatini innovatsion asosda tashkil eta oladigan shaxsni tayyorlashdan iboratdir

Bugungi kunda jahon pedagogikasida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (person-centered education) insonning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olishga asoslangan samarali ta’lim strategiyasi sifatida e’tirof etilmoqda.

An’anaviy ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish va qayta tiklashga ustuvor ahamiyat berilishi mumkin. Biroq zamonaviy pedagogik faoliyat o‘qituvchidan mavjud bilimlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, ta’limiy muammolarni mustaqil hal etish, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos metodlarni tanlash va ta’lim jarayonini ijodiy tashkil etishni talab qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvda ta’lim oluvchi tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki o‘z rivojlanish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Uning qiziqishlari, ehtiyojlari, individual imkoniyatlari, hayotiy tajribasi va mustaqil fikrlashi ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatga tayyorlash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, iqtidorini namoyon etish, yangicha fikrlaydigan, raqobatdosh mutaxassis kadrlar sifatida tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali bo‘lajak

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy muhitni shakllantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish, klaster texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini rivojlantirish, ularda ijodiy faollikni individuallashtirish, zamonaviy talablar asosida mazkur jarayonlarni innovatsion takomillashtirishning meyoriy asoslarini yaratishga nisbatan tizimli yondashilmoqda. “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu- pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus egallagan bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”[1]ligi ustivor vazifa etib belgilangan.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari asosida tizimli tashkil etish, uning rivojlanish bosqichlarini aniqlash va samaradorligini baholashga imkon beruvchi mezonlarni asoslash zarurati mavjud.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, hamda globallashuv jarayonlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning jadal rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muammoli vaziyatlarni hal etish va bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligi hamda ijodiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim zamonaviy pedagogik jarayonni tashkil etishning muhim yondashuvlaridan biri bo‘lib, ta’lim oluvchining individual

xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va shaxsiy tajribasini hisobga olishga asoslanadi. Mazkur yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tashabbus ko‘rsatishi, nostandart pedagogik yechimlar ishlab chiqishi hamda o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishiga imkon yaratadi. Natijada talabalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan ijodiy va amaliy ko‘nikmalar ham shakllanadi.

Mavzuning dolzarbligi yana shundaki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayoni individual yondashuv, innovatsion metodlar, muammoli ta’lim, loyiha faoliyati va refleksiv baholashni o‘zaro uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Bunda talabaning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash, ularning rivojlanish bosqichlarini belgilash, tegishli mezon va ko‘rsatkichlar asosida baholash hamda samarali pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish dinamikasini o‘rganish ularning kasbiy tayyorgarligidagi o‘zgarishlarni tizimli kuzatish, qo‘llanilayotgan pedagogik metodlarning samaradorligini aniqlash va ta’lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish dinamikasini nazariy-metodik jihatdan asoslash, uning bosqichlari, mezonlari va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Fan va texnikaning ildam taraqqiyoti, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning zamonaviylashuvi, asosiy buyurtmachi sifatida davlat va ijtimoiy hayotning ta’limga qo‘yayotgan yangidanyangi talablariga mos ravishda ta’lim-tarbiyaning sifat - samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishni, uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyalashni, ta’lim-tarbiya samarador-ligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladigan ta’sirchan choralarni ko‘rishni taqozo qildi.

Natijada oliy ta’limni mazmunan modernizatsiyalashda asosiy vazifalari, tamoyillari, yo‘nalishlari aniqlandi.

Oliy ta’lim tizimida yuqori malakali pedagog-kadrlar tayyorlash mazmunini modernizatsiyalash asosida ularni ijodiy - kasbiy kompetentligini shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standartlari yaratildi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilardan foydalanishi maqsadga muvofiq sanaladi: ijodiy faoliyatli o‘zlashtirishga motivatsiyali-ahamiyatli munosabat; kasbiy-amaliy vazifalarni hal etish uslublari va usullarini bilish va ulardan ijodiy foydalanish qobiliyati; qarorlar qabul qilishda mustaqillik va o‘z faoliyatini boshqara olish va hokazolar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy faollik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik, ixtirochilik katta rol o‘ynashiga olingan tahlillar natijasida amin bo‘lindi. Ijodiy faoliyat bu – diqqatni, kuzatuvchanlikni, hissiyotni, idrokni, xotirani, tafakkurni, tasavvurni, irodani va boshqa jarayonlarni safarbar qilish orqali talaba o‘zining kasbiy faoliyati jarayonida sodir bo‘lgan muammolar yechimini to‘g‘ri hal qila olishidir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyat yuritishga tayyorlashda mutaxassislik fanlarini, tanlov fanlarini o‘qitish va ularning bu fanlardan olgan bilimlari, egallagan malaka va ko‘nikmalari hamda ularni baholashning ob’ektivligi muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayrgarligik daraja ko‘rsatkichlarini va ularning ijodkorligi, kasbiy kompetensiyalarini aniqlash bo‘yicha baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida malaka talablariga muvofiq ravishda ijodiy faoliyat olib borishga tayyor bo‘lishi, yuqori nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini ta’minlaydigan zamonaviy pedagogik, AKT va raqamli texnologiyalaridan foydalanishi, ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etishi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini

nazorat etishni tashkil etishi, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga ularni tayyorlashi va talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilishi, aniq o‘quv fani o‘quv-metodik jihozlanishining bazasini yaratishi, ta’lim muassasasining ilmiy-metodik faoliyatida ishtirok etishi kabi kompetentliklarga ega bo‘lishlari, talabalar bilan tarbiyaviy ishni tashkil etishi va o‘tkazishi, boshqarish kabi o‘z kasbiy malakasini oshirishi lozim.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirilgan kasbiy-ijodiy faoliyatga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali erishishning didaktik asoslarini yaratish;

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatga tayyorgarlik mahoratini shakllantirish va uzluksiz rivojlantirish ga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari mazmuniga UO‘TM dars mashg‘ulotlarida qo‘llash uchun qulay bo‘lgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini kiritish;

Umumiy pedagogik, boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya,tarbiyaviy ishlar metodikasi kabi fanlarni texnologik, texnokrativlik, kreativlik, akmeologik, kognitivlik, kommunikativlik va shaxsga yo‘galtirilgan yondashuvlar asosida boyitish;

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali tarbiyalash jarayonining mazmuni va texnologik asoslarini takomillashtirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi
2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun
3. Rogers, C. R. Freedom to Learn for the 80s. Columbus, Ohio: Charles E. Merrill Publishing Company, 1983.

4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Saidova, G. H. Training future primary school teachers for the organization of creative activities as a pedagogical issue. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2022, 12(4), 12–16. DOI:https://doi.org/10.5958/2249-7137.2022.00231.2
6. Abdurakhmonova, N. A. Didactic Opportunities for Developing the Creative Activity of Future Primary School Teachers. International Journal of Pedagogics, 2025, 5(6), 81–83. DOI:https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue06-24
7. Nazarov, J. X. Interactive and Innovative Pedagogical Approaches to Developing Creative Competence in Pre-Service Teachers. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2026, 7(1), 238–243. DOI:https://doi.org/10.51699/cajlpc.v7i1.1425
8. Newman, S., & Latifi, A. Vygotsky, education, and teacher education. Journal of Education for Teaching, 2021, 47(1), 4–17. DOI:https://doi.org/10.1080/02607476.2020.1831375
9. Sh.Shodmonova Olimova F.K. “Pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanma Toshkent “INNOVATSIYA-ZIYO” 2024
10. A.Shodmonova, Olimova F.K. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi “Pedagogika” Darslik Toshkent «Fan va texnologiya» 2023
11. Sulaymanova D. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim texnologiyalarining roli. 2025